



O'ZBEKISTONDA OAV ERKINLIGI. YANGI DAVR JURNALISTIKASI

Bazarbayeva Lobarxon Baxtibayevna

QQDU Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti

Sirtqi bo'lim 3-bosqich talabasi


Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda soʻz va fikrlash erkinligining huquqiy kafolatlari, jurnalistlarga yaratilgan shart-sharoitlar, OAV va ularning erkin ijod qilishi uchun yaratilgan qonunlar haqida keng yoritilgan. Axborotdan foydalanish va uning ommaga tarqatish masalasi tahlil qilingan.*

Kalit Soʻzlar: *assotsiatsiya, konvensiya, provayder, veb-sayt, globallashtirish, axborot, server, blogger, matbuot, identifikatsiya, imtiyoz, kafolat va imkoniyat.*

O'zbekistonda soʻz erkinligini, fikrlar xilma-xilligini, odamlar oʻz qarashlarini ochiq-oshkora ifoda etishini amalda ta'minlash uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Mamlakatimizda 1472 ta ommaviy axborot vositasi erkin faoliyat yuritayotgani hamda izchil rivojlanib borayotgani buning yaqqol tasdig'idir. Ularning 60 foizi nodavlat ommaviy axborot vositasi ekani, ayniqsa, e'tibordir. Birgina soʻnggi yillar ichida mamlakatimizda "Madaniyat va Marifat", "Dunyo Bo'ylab", "Navo", "Oilaviy", "Diyor", "Bolajon", "Mahalla", "UzHD" singari davlat telekanallari, "Milliy TV", "Uzreport TV" va "MY5" singari nodavlat telekanallar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular fikrlar va qarashlarning muhim jihatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, har birida mamlakatda kechayotgan jarayonlarga o'z munosabati va nuqtai nazari mavjud.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining kafolatlari bu, avvalambor, uning rivojlangan qonunchilik asosidir. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim fikrlash, soʻz va e'tiqod erkinligi huquqiga ega ekanligi mustahamlangan. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Ushbu qoidani takomillashtirish maqsadida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Pochta aloqasi to'g'risida"gi, "Radiochastota spektri to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi kabi 20 dan ortiq qonunlar qabul qilindi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonunlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, aytish joizki, bu huquqiy hujjatlarning yaxlit tizimini yaratadi, sohadagi munosabatlarning huquqiy aniqligini ta'minlaydi hamda ommaviy axborot vositalarining amalda erkinligini kafolatlashga xizmat qiladi. Bu borada Avstriya, GFR, Shvetsiya singari davlatlar amaliyoti bilan tanishganimizda, ushbu mamlakatlar konstitutsiyalarida OAV erkinligiga alohida e'tibor qaratilgani, matbuot to'g'risida maxsus qonun hujjatlari mavjudligiga amin bo'ldik. Ammo ayrim





mamlakatlarda yaxlit qonun hujjatlarining yo'qligi ommaviy axborot vositalari faoliyatini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Axborot erkinligi sohasida davlat subsidiyalari, ijtimoiy buyurtmalar, grantlar hamda OAVni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha nodavlat tuzilmalari muhim o'rin tutadi. O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish jamoat fondi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi va boshqa tashkilotlar ushbu yo'nalishda faol ish olib bormoqda. Xususan, so'nggi yetti yilda Davlat byudjetidan 16 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilgani soha rivojida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunda 2015-yilda ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan grant mablag'lari hajmi 1,6 martaga ortdi.

OAV uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishiga ham katta e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetlarida, shuningdek, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universitetida soha uchun kadrlar tayyorlanmoqda va hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida jurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar samaradorligini ta'minlash hamda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish yo'lida ish olib borilmoqda.

Milliy ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jahon andozalari talablari darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ijodkorlar mehnatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilib kelinmoqda. "Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning o'zi hayotimizga keskin sur'atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo'lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lida g'oyat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo'yimoqda. Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o'z so'zi uchun ma'sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma'naviy jasorat ham talab etiladi", — degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida. Davlat rahbarining biz jurnalistlarga yuksak ishonchi, har tomonlama qo'llab quvvatlanishi, sharafli kasb egalari oldiga yuksak va sharafli vazifalarni yuklaydi.

"Hamma davrlarda ham jurnalistlarga oson bo'lmagan. Bu kasbni bilib turib tanlaganmiz. Jurnalistika kurashishni talab qiladigan soha. Matbuot va ommaviy axborot vositalarini to'rtinchi hokimiyat darajasiga chiqishini istaymiz. Bugun biz shu kuchga to'laqonli ega bo'lish uchun harakat qilyapmiz.





O'zbek jurnalistikasining erkinligi, yutuqlari haqida gapirilganda ko'pchilik avvalgi davr bilan qiyoslashga o'rganib qoldi. Bunday solishtirish u qadar to'g'ri emas, nazarimda. Chunki jurnalistikamizni avvalgi vaziyati bilan qiyoslagandan ko'ra, "Aslida jurnalistika qanday bo'lishi kerak?" degan savol nuqtai nazar bilan qarashimiz lozim.

Axborotdan foydalanish erkinligi, shubhasiz, fuqarolarning axborot huquqlarini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Konstitutsiyamiz, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonun har kimning axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini kafolatlaydi. So'nggi yillarda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi va boshqa qonunlarga muvofiq, davlat organlari, jamoat birlashmalari fuqarolarga ularning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Ammo axborotdan foydalanish erkinligi, ayniqsa, u jamiyat xavfsizligi, odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini singari tushunchalarga daxl qilsa, mutlaq bo'lishi mumkin emas. Bunda cheklovlarsiz biror maqsadga erishib bo'lmaydi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasiga binoan, milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik yoki jamoat tartibi maqsadida, sog'liq va axloqni muhofaza qilish, shaxsning obro'sini yoki boshqa huquqlarini himoya qilish, maxfiy yo'l bilan olingan axborot tarqatilishining oldini olish hamda odil sudlovning xolisligi va nufuzini ta'minlash uchun so'z erkinligi cheklanishi mumkin.

Internet jahon axborot tarmog'i kuchli axborot makoni bo'lishi bilan bir qatorda, afsuski, faqatgina bunyodkorlik g'oyalaridan iborat emas. BMTning so'z va fikr erkinligini rag'batlantirish va himoya qilish masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Frank La Ryuning ma'ruzasi (2011 yil 16 may)ga ko'ra, internet insonning ajralmas huquqi hisoblanadi. Bu haqiqatan ham to'g'ri. Chunki har birimiz axborot jamiyatining bir bo'lagi bo'lib, axborot bugun taraqqiyotga eltuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Ayni paytda shu narsa qayd etilganki, bu huquq insonning boshqa huquqlari kabi muayyan hollarda cheklanishi mumkin. Hech qaysi huquq mutlaq emas, chunki agar u cheklanmasa, u o'z-o'zidan boshqa shaxslarning huquqlariga daxl qiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, O'zbekistonda veb-saytlar, blogerlarning sahifalari ayrim rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi ro'yxatdan o'tkazilmaydi. Ammo ular ro'yxatdan o'tkazuvchi organga ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tkazishni so'rab murojaat qilishi mumkin. Bu, tabiiyki, qonunchilikda ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar uchun ko'zda tutilgan imtiyoz, kafolat va imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda mamlakatimizda "Uz" domenida 30 mingga yaqin veb-saytlar bo'lib, ularning 360 dan ortig'i internet ommaviy axborot vositasi sifatida faoliyat yuritadi.

Mamlakatimizda veb-saytlardan foydalanish bir holatda, ya'ni veb-sayt egasi, shu jumladan, bloger "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun talablarini buzib, o'z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan mamlakatning mavjud konstitutsiyaviy





tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etish, urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilish, davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi, shuningdek, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'yuvchi axborotni tarqatish va boshqalar uchun foydalangandagina cheklanishi mumkin. Internetdan foydalanishni cheklash imkoniyati dunyoning juda ko'plab mamlakatlari, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari qonunchiligida ham ko'zda tutilgan. Misol uchun, Fransiya 2000 yilda Yevropa Ittifoqida birinchilardan bo'lib shaxsi identifikatsiya qilinmagan shaxslar uchun xosting bergani uchun provayderlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni joriy qildi. Bunda mahalliy serverlarda joylashgan barcha saytlarning mualliflari o'zi haqida to'liq va ishonchli axborot taqdim qilishi kerak. Aks holda qonunda olti oygacha qamoq jazosi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, nafaqat ma'lumotlarni tekshirmagan provayderlarga nisbatan, ayni paytda foydalanuvchilarga nisbatan ham javobgarlik ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, Fransiya Ichki ishlar vazirligi tarkibida axborot texnologiyalari va aloqa sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bosh boshqarmasi ish olib boradi. U internetdagi saytlarning mazmunini nazorat qiladi, ayrim hollarda politsiya xodimlari sud sanksiyasiz provayderlardan veb-saytdan foydalanishni cheklashni talab qilishi mumkin. Provayderlar huquq-tartibot organlarining talabiga muvofiq, bosh boshqarma "qora ro'yxati"ga kiritilgan shubhali saytlarni yopishi shart. Ular bunday qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqiga ega emas. Bundan tashqari, qonun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga prokuratura organlari roziligi bilan qurol-yarog', giyohvand moddalar savdosi, noqonuniy pul mablag'larini legallashtirish singari og'ir jinoyatlarni tergov qilish paytida axborot olish uchun foydalanuvchilarning kompyuterlariga ulanishga ruxsat beradi.

So'z erkinligi, avvalo, katta mas'uliyat. Uning boshqa kishilar huquqlariga daxl qilish yoki demokratik qadriyat ekanligini ajratib ko'rsatadigan chegara qayerda degan savol avvalo ko'pchiligimizni o'ylantiradi. Mamlakatimizda jurnalistlar axborotning haqqoniyligi uchun javobgarligi belgilab qo'yilgan. Masalan, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda jurnalistning huquqlari bilan bir qatorda, majburiyatlari ko'zda tutilgan. Unga ko'ra, jurnalist o'zi tayyorlayotgan materiallarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi, aybsizlik prezumptsiyasi prinsipiga amal qilishi, shaxsning huquqlari va erkinliklarini, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Jurnalist o'z kasbiga doir axborotdan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi, axborot manbai yoki muallif rozilgisiz jismoniy shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlarni e'lon qilishi, shuningdek, audio va video yozish vositalaridan foydalanishi mumkin emas.





Bu juda to'g'ri talabdir. Chunki globallashuv, axborot jamiyati shakllanayotgan bir sharoitda, ayniqsa, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga daxl qilishdan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanihga bo'lgan huquq va qonuniy manfaatlariga rioya qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Mamlakatimiz qonunchiligida fuqarolar va yuridik shaxslarning ishchanlik obro'sini himoya qilishga oid huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qoidalar o'z aks topgan, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlovchi yolg'on ma'lumotlarni bila turib tarqatganlik singari tuhmat va haqorat uchun javobgarlik belgilangan. So'z erkinligi insonning sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi bo'lgan huquqidan ustun bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston qonunchiligining ushbu qoidalari xalqaro huquqiy qoidalarga hamda boshqa demokratik mamlakatlar tajribasiga to'la muvofiq keladi.

Shu bilan birga, yurtimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari ushbu yo'nalishdagi qonunchilik ham yanada erkinlashtirilayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksiga yaqinda kiritilgan o'zgartishlarga binoan, yarashuv instituti tuhmat va haqoratga nisbatan ham qo'llaniladigan bo'ldi. Jinoyat kodeksining 139-moddasi (tuhmat)da hamda 140- moddasi (haqorat)da ko'zda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Zotan, jazoning darajasi muhim emas, balki jamiyatda boshqa insonlarning huquq va erkinliklariga, sha'ni va qadr- qimmatiga hurmat oliy qadriyat sifatida qaror topishi asosiy maqsaddir. Mamlakatimizda aynan huquqiy madaniyat yuksalishi bilan so'z va fikr erkinligi, ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligi kafolatlari mustahkamlanmoqda.

Umuman, dunyoning aksariyat rivojlangan demokratik mamlakatlarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini huquqiy tartibga solishni qiyosiy o'rganish ushbu sohadagi milliy qonunchilik talablarining o'zaro yaqinligini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2005
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. T.: O'zbekiston
3. "Lug`at. Jurnalistika, Reklama, Publik-rileyshnez. Ma'lumotnoma. 1700 ta atama". "Zar qalam" nashriyoti 2003.
4. Chet tilida
5. Berger. A.A.Essentials of Mass Communication Theor. - Thousand Oaks ets.: Academics, 1995.

